

Elektron soliq xizmatlari integratsiyasining yangi bosqichi

Mamlakatimiz Prezidenti 2023-yil 24-may kuni “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son Qarorni imzoladi.

Mazkur hujjatga muvofiq bir qator davlat xizmatlarini takomillashtirish, davlat axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish nazarda tutilmoqda.

Xususan, **2024-yil mart oyida** – sinov tarzida “Elektron retsept” hamda “Asl belgisi” raqamli markirovkalash tizimlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek:

2023-yil iyul oyida – my.gov.uz va license.gov.uz portallarida Onlayn-NKMLarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish;

2023-yil oktyabr oyida –

– “my.gov.uz” portali orqali jismoniy shaxslarning ortiqcha to‘langan soliqlarini qaytarishga (nodavlat MTTlarga to‘lanadigan to‘lovlar, o‘qish uchun to‘langan kontrakt summalarini, olingan ipoteka kreditlari) ariza yuborish;

– my.gov.uz va dxa.gov.uz portallarida ko‘chmas mulkni va ochiq yer maydonini ijaraga berish shartnomalarini hisobga qo‘yish;

2023-yil dekabr oyida –

– my.gov.uz va my.soliq.uz portali orqali soliq deklaratsiyalarini (*yillik, ixtiyoriy, dastlabki, chet el jismoniy shaxslarining mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar*) taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, Soliq qo‘mitasining tegishli axborot tizimlari orqali:

– Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Geoaxborot” axborot tizimiga qishloq xo‘jaligi sohasida iste‘mol narxlari indeksi ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan narx ma‘lumotlari (*2023-yil dekabr*);

– “Raqamli geoportal” hamda “Xalq nazorati” platformalari doirasida yuridik shaxs va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar, ular tomonidan to‘langan soliqlar hamda mavjud soliq qarzi, onlayn-NKM hamda ko‘chmas mulk ijara shartnoma ma‘lumotlarini axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilgan holda taqdim etish (*2024-yil mart-aprel*) belgilanmoqda.

Axborot kommunikatsiya-texnologiyalari departamenti